

ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

PUBLIC EDUCATION

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
XALQ TA'LİMİ VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

6  
2021  
(noyabr-dekabr)

[www.pubedu.uz](http://www.pubedu.uz)



<https://t.me/xalqtalimijn>



# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

6

(noyabr-dekabr)

Jumal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxalga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Muloqot madaniyatni o'qituvchilarning kasbiy kompetentiliqining asosiy omili



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- |                |    |   |
|----------------|----|---|
| R. Djurayev    | 6  | Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy g'oyalaming rivoji  |
| M. Inoyatova   | 11 | O'quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish   |
| F. Karimova    | 16 | Pedagogning axborot muhitida rivojlantirish muammolari va axborot kompetenligi mazmuni                            |
| H. Begimqulov  | 20 | Innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentiliqini rivojlantirish mazmuni |
| M. Umaraliyeva | 25 | Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o'qituvchi kompetensiyasi  |
| U. Mahkamov    | 29 | Talabalarda mustaqil ta'lif jarayonida kreativ fikrash malakalarini shakllantirish                                |
| D. Mahkamov    |    |   |
| M. Madiyarova  |    |   |



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- |                 |    |   |
|-----------------|----|---|
| J. Xusanov      | 33 | Geometriya fanidan uslubiy ishlamalar tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi          |
| N. Shamsiddinov | 36 | Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari   |
| B. Quvonov      | 41 | Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tafbiq etish yo'llari   |
| R. Safarova     | 44 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkuri shakllantirish xususiyatlarini o'rGANISH      |
| M. Xaydarova    | 49 | O'rta tibbiy ta'lifni kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi                                     |
| K. Karimova     | 52 | Bolalami tabiat bilan tanishtirish usul va texnologiyalari  |
| N. Akbarova     | 57 | Xonijiy til o'qituvchilarida deontologiya va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari                  |
| L. Namazbayeva  | 61 | Talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari |
| D. Kenjabyeva   |    |   |
| B. Karimov      |    |   |



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- |               |    |   |
|---------------|----|---|
| N. Karimova   | 64 | Professional ta'lilda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini baholash mezonlari          |
| F. Abdullayev | 68 | Tabiiy fan (science) bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash yondashuvlari |



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- |                |    |   |
|----------------|----|---|
| F. Berdibekova | 75 | Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga "Tarbiya" darsini tashkil etishni o'rgatish texnologiyasi |
|----------------|----|---|

Rishay DJURAYEV,  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor  
Muhabba INOYATOVA,  
pedagogika fanlari nomzodi

## MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-AXLOQIY G'YOYALARING RIVOJI

### Annotatsiya

Megolade mamlakatimizda olib borilayotgan ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar masalalariga bag'tihlangan. Muallifler xalqimiz qalbiga yaqin qadriyatlarga bo'lgan munosabati o'zgarish, uchun o'tmish madaniy-ma'nnaviy qadriyatlarni ro'yobga chiqarish, milliy ongni o'stirish, diniyruhini pokrashishimizga shari-sharoit yaratib berish, nohaq jabrlangan siymolar nomini yuzaga shioqish, an'neviy qadriyatlarni tiddash bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kelit se'slar. Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar, qadriyat, milliy ong, meros, millatlararo totuvlik, immmunitet, o'tmish bag'trikenglik.

Статья посвящена вопросам духовно-нравственной работы, проводимой в нашей стране. Авторы высказали свои мысли и соображения по изменению отношения к ценностям, близким сердцу нашего народа, то есть по реализации культурно-духовных ценностей прошлого, развитию национального сознания, созданию условий для религиозно-духовного очищения, увековечиванию памяти несправедливо репрессированных деятелей, восстановлению традиционных ценностей.

**Ключевые слова.** Духовно-просветительская работа, ценность, национальное сознание, наследие, межнациональное согласие, иммунитет, толерантность прошлого.

The article is devoted to the issues of spiritual and moral work carried out in our country. The authors expressed their thoughts and considerations on changing attitudes towards values close to the heart of our people, that is, on the realization of cultural and spiritual values of the past, the development of national consciousness, the creation of conditions for religious and spiritual purification, perpetuating the memory of unjustly repressed figures, the restoration of traditional values.

**Key words.** Spiritual and educational work, value, national consciousness, heritage, interethnic harmony, immunity, tolerance of the past.

**M**ustaqil O'zbekistonda ma'nnaviy-axloqi g'oyalaming bugungi takomilida davlat rahbarimizning tutgan o'mni alohida ahamiyatga molikdir. Shavkat Mirziyoyev Oliy majlis sessiyasida qilgan ma'ruzalarida, yodgorlik majmularining ochilishi marosimlarida, hokimiyyat yig'ilishlarida, xalqimizni yangi yil va bayramlar bilan qutlash asnosida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni tadqiq etish, buyuk ajodolarimiz qoldirgan benazir ta'lilotlarni chuqur egallash, qatag'on yillari qurban bo'lganlar ruhini shod etishni ta'kidladi. U yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish g'oyalarini o'z ma'ruzalari va asarlarida mutazam bayon etib, ilm-fan ahli hamda pedagog olimlarni bu sohada fidoyi bo'lishga da'vat etdi.

Davlat rahbarimiz ma'nnaviy barkamollik, yaratuvchilikni ulug' fazilat hisoblaydi,

*ana shunday fazilatga ega bo'lmasslikni jaholat deb biladi: "Biz "jaholat" deganda, odad-da dinya jaholat, aqida parastilikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotli jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o'z vaqtida kurash olib borimasa, o'ta og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda..."*<sup>1</sup> - deb ta'kidlaydi.

Shavkat Mirziyoyev viloyat, shaher va tuman hokimlari bilan uchrashuvda respublikamiz hayotining barcha sohalarida amalga oshiriladigan vazifalar kadrlar seviya-ertangi murakkab, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mutanosib suronli hayotga tayyorlash-kamoloti – jamiyatning eng katta boyligi ekanini nazarda tutib, bu ezgu maqsad har diki, haqiqatdan ham, o'z farzandlarimiz va nabiralarimiz bilan faxlanishni istasak, "... tuyg'usini shakllantirish"<sup>2</sup> zarur. Zero, inson ma'naviy barkamolligi ushbu tushunchalar bilan egizakdir.

U Oliy Majlis qo'shma majlisida so'zlagan nutqida xalq manfaatlarining birinchi o'ringa qo'yish zarurligini ta'kidlab: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergen ham – shu xalq. Kim bilan bamaslahat ish bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq rozi dan rozi bo'ladi". Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham biz-

Ayniqsa, so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy buniyodkortik yo'tida ta'lim sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy-ma'naviy sohalar bo'yicha beshta muhim tashab-maktablari, Hamid Olimjon, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etildi. O'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan:

– Xalqimizning muqaddas e'tiqodi – islom diniga, ilm-fanga mansub ma'naviy-ma'rifiy merosimiz asrab-avaylanmoqda;

– O'lkamizda yetishgan buyuk ajodolarimiz – Imom al-Buxoriy, Iso at-Termizi, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Axmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi din peshvolari, ilm ahillari, shoir va sarkardalarimiz nomi tiklanib, abadiylashtirildi;

– Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan, bu yo'lda o'z jonlarini fido qilgan, millat erkinligini orzu qilgan, milliy g'oyani ilgari surganlari uchun qatag'on qilin-gan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munawvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdubxamid Cho'pon kabi ma'rifikatparvarlar xotirasi abadiylashtirildi.

Milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun xalqimiz qalbiga yaqin qadriyatlar-ro'yobga chiqarish, milliy ongni o'stirish, diniy-ruhiniy poklanishimizga shart-sharoit

<sup>1</sup>Shavkat Mirziyoyev. Xalqimiz roziliqi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O'zbekiston NMIU, 2018 y. – 508 b. – 195-b.

<sup>2</sup>O'sha kitob, 162-b.

<sup>3</sup><https://kun.uz/52010676>

yaratilib berish, noheq jabrlangan siyosiy nomini yuzaga chiqarish, er' anaviy qadriyatlarni tildash eley meqsad qilib qo'yildi. Binobarin, mustaqil O'zbekistonning qatnashi va ma'nnaviy poydevorini mustahkamlash birinchi navbatda, mehnatssevar va badavlat, mu'nnaviy yetuk va madaniyatli kishilarni shakllantirishga qaratila boshlandi.

Bu jarayonning siyosiy iqtisodiy hamda ijtimoiy-ma'nnaviy sohalardagi ahamiyati Prezidentimiz tomonidan har tomonlarma asoslab berildi.

#### Siyosiy sohada:

- xalqning turmush tajribasiga, respublika shohisining milliy-madanly an'analariga, barcha ijtimoiy gunuhlari va qatlamlarining manfaatlariiga mos keladigan, xalqimizni rozi qiladigan haqiqiy ijtimoiy adolat va demokratiya temayillarini qaror toptirish;
- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy davlat barpo etish;
- O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubigidan va e'tiqodidan qat'i nazar, respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik va vatanparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarish;
- bir mafkura, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan qat'yan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish;
- ko'p partiyaviyilikni amalda shakllantirish.

#### Iqtisodiy sohada:

- milliy boyiliklar ko'payishi, respublika mustaqilligi, xalq farovonligini ta'minlaydigan barqaror iqtisodiyotni barpo etish;
- bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich rivojlantirish, tashabbuskorlik va ishlomonlikka keng yo'l ochish, tadbirkorlikka imkoniyat yaratish;
- mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish;
- konxona va tashkilotlar mustaqilligini kengaytirish;
- odamlarning ijtimoiy muhofazalari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish uchun kurashish.

Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'nnaviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini yo'nalishlari bo'yicha:

- aholi o'rtaсиda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;
- mamlikatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'nnaviy-ma'rifiy ishlolar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;
- oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'nnaviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, "mahalla - tuman - viloyat - respublika" tamoyili asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'nnaviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaliv axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;
- ijtimoiy-ma'nnaviy sohalar bo'yicha beshta muhim tashabbus, "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzlusiz ma'nnaviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion

usulublarini ishlab chiqish;

- tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g'oyaligiga xavf soluvchi turli ichki va teshqi tahlidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish;

- sholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida buniyodkorlik g'oyalerini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash<sup>4</sup>. Shavkat Mirziyoyev bunday ma'naviy potensial o'zbek ollalarining yashash tarzi va an'analarida mavjud ekanligi, har bir inson nafaqat o'z ollasi, balki qarindosh-urug'lari, yaqin kishilar, qo'ni-qo'shnilarining salomatligi, ma'naviy va moddly boyishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi zarurligini ta'kidlab o'tganlar.

Asosiy maqsad – inson manfaatlariga xizmat qiladigan mehnatni rag'batlantirishning kuchli mexanizmiga ega bo'lgan, ahollijtimoliy nochor qatlamlarini davlat yo'lli bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishdan iborat bo'lib qoldi.

Xalqimiz asrlar mobaynida o'z madaniyati, urf-odatlini qanchalik ko'z qorachig'idek saqlab, turli tarixiy buhronlar va talafotlar davrida ham milliy qadriyatlarimizni yuksaltish haqida qayg'urib kelgan bo'lsa, boshqa xalqlar va mamlakatlarning umuminsoniy qadriyatlariga ham shu qadar katta ehtirom tuyg'usi bilan munosabatda bo'lib kelgan. Qadimgi Eron, Hind, Xitoy va Yunon madaniyatining yuksak namunalariga qanchalik qiziqlishi kuchli bo'lsa, arab va yevropa falsefasi, adabiyoti va san'atiga nisbatan ham hurmet va e'tibori shunchalik kuchli bo'lgan. Natijada, kishilarimiz ongi va shuurida umuminsoniy qadriyatlarga munosabat ijtimoly va hayotiy zaruriyatga aylangan. Uzoq tarixdayoq dunyoga samimiyl muloqotda bo'lib, yaqindan munosabatda bo'lish uchun Sharq va G'arbni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'llini bunyod etgan, Samarcand va Buxoro, Termiz va Turkistonlarni islam ta'limotining shamchiroqlariga aylantirgan. Islam dinini dunyoning ko'p mamlakatlarda keng tarqalishi va ildiz otishi xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan intilish hamda ishtiyoqning ifodasidir.

Umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirish sovet davrida o'zgacha tus olib, milliy o'zlikni yo'qotish evaziga umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlashish va ulami o'zlashtirish tamoyillari vujudga kelgan edi. Mustaqillik milliy o'zlikni yo'qotishga chek qo'ydi. Endi o'z madaniyatimiz va qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, buniyodkorlik ishlarini umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirish orqali qo'shib olib borish imkoniyatiga ega bo'ldik. Zero, millat va mamlakat tarixi va taqdirda juda katta rol o'ynaydigan omil – bu xalqning ruhini mustahkamash va tetiklashtirishdir.

Mustaqillik sharofati bilan o'tmish ajdodlarimiz orzu qilgan milliy istiqlol g'oyasining shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etilib, kitob holida xalqimizga taqdim etildi:

- asrlar davomida xalq orzu qilgan demokratiya tiklandi va hayotga tatbiq etilmoqda;

- o'zbek xalqi o'tmish tarixi, buyuk olim-fozillari, davlat arboblari, din peshvolari bilan g'ururlanish va faxlanish imkoniyatiga ega bo'ldi;

- milliy odob-axloq, insonparvarlik, xalqqa va vatanga sadoqat kabi fazilatlar qaror topmoqda;

- o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz qadrlanib, olamshumul ahamiyat kasb etmoqda;

- o'tmishda mustaqillik, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar davrida shakllanib,

<sup>4</sup> "Ma'naviy-ma'nifliy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'ZR Prezidenti qarori. 2019-yil, 3-may. -<https://qalampir.uz/news/ma'naviy-ma'nifliy-ishlar-samaradorligini-oshirish-bo'yicha-prezident-qarori-qabul-qilindi-3127>

rivojlangan vatanparvarlik va inceonparvarlik o'zidan xalqimiz oragi va qabilidan mus-taham etish etmagan.

- xalqning milliy his-huyg'usi, siyosiy oragi va siyosiy faoliyatni. Vatan bi-tan qurultanish uning boy tarzi, bugungi donlamon tuntari, baxli kelajagi bilan qurultanish farr-ifbor tuyg'uni yukselmoqda

Shavkat Mirziyoyev tarbiya massasidagi pozitsiyasini ochiqlab, shunday degan edi: "Abdulla Avtoniyning 'Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo nafot - yo halo-kai, yo saeedat - yo fatokat massasidir', degan so'zlerini takror va takror aylashdan charchamayman.

Nega deganda, bu filr bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega ekanini unutmashigimiz lazim.

Yoshlarimiz kimning avlodlari ekanini chuqur anglashlari kerak. Ayni vaqtida bu-dungi islohot va o'zgarishlar o'z-o'zidan bo'lmayotganini bilishlari zarur<sup>6</sup>.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid devlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlarma yetuk va barkamol, intellektual salohiyatlari, o'z qatl'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurting ertangi munosib kelajagi uchun daxdorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifa-tida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'nin olishi-ning muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi<sup>7</sup>.

### Foydalantilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimiz roziliqi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-tom. – T.: O'zbekiston NMIU, 2018 y. –508-b. – 195-b.
2. <https://kun.uz/52010676>
3. "Ma'naviy-ma'trifiy ishlar samaradortigini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tebdirler to'g'risida"gi O'zR Prezidenti qarori. 2019-yil.
4. O'zbekiston yoshlar mamlakati. - <https://strategy.uz/index>.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi - <https://review.uz/az/post/vystupleniye-prezidenta-shavkata-mirziyoyeva-na-pervom-zasedanii-senata-olli-majlisa>

<sup>7</sup> O'zbekiston yoshlar mamlakati. - <https://strategy.uz/index.php?news=615>